

# Brifing: Fermerlar va dehqon xo'jaliklari uchun qulaylik: "O'zkiyosanoat" AJ tomonidan qator imkoniyatlar joriy etilmoqda

// 11.03.2025

<https://uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/brifing-fermerlar-va-dehqon-xo-jaliklari-uchun-qulaylik-o-zk>

AOKAda o'tkazilgan brifingda "O'zkiyosanoat" AJ Axborot xizmati rahbari Hojiakbar To'laganov bu haqda batafsil ma'lumot berdi.

Xususan, ekinlarni mineral o'g'itlar bilan oziqlantirishi kerak bo'lgan lekin xarid qilishga imkoniyati cheklangan yoki yetarli mablag'ga ega bo'lmaganlar uchun maqbul yechim taklif qilinadi.

Korxonalar tomonidan mineral o'g'itlarni Respublika tovar-xom ashyo birjasida alohida forvard shartnomalar asosida sotish joriy qilindi.

Forvard shartnomasi - nima? Bunda kimyo korxonalari mineral o'g'itlarni respublika tovar-xomashyo birjasiga oldindan to'lovning 30 foizgacha avans tarzda va qolgan qismini faktoring xizmatidan foydalangan holda 90 kun ichida amalga oshirish shartlari bilan sotadi.

Batafsil videoda

**"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati**